Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiya.....	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida.....	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи.....	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili.....	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar.....	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi.....	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля).....	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish.....	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.....	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari.....	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari.....	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamiy Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	



DUNYO MAMLAKATLARIDA XORIJIY TALABALAR OQIMI TAHLILI VA TA'LIM EKSPORTINING DEMOGRAFIK SALOHIYATI

Abdullayev Javoxir Jaxongirovich

Buxoro davlat texnika instituti tayanch doktranti
ORCID: 0009-0007-6258-4178

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda oliy ta'lim xizmatlari eksportining milliy iqtisodiyot va ta'lim tizimi rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, xorijiy talabalarni jalb qilish strategiyalari, xalqaro reytinglar va akkreditatsiya tizimi orqali ta'lim eksportini kengaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro ta'lim bozorida talabalar oqimi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, mintaqalar kesimidagi o'sish dinamikasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim eksporti, xalqaro hamkorlik, statistik tahlil, xalqaro akkreditatsiya, xorijiy talabalar, demografik o'zgarishlar, innovatsiya.

Abstract: This article analyzes the impact of higher education services export on the development of the national economy and education system in the context of increasing globalization and competition. In particular, it highlights the reforms carried out in Uzbekistan, strategies for attracting international students, and the role of global rankings and accreditation systems in expanding educational exports. The study also provides a statistical analysis of student mobility in the international education market and reveals regional growth dynamics.

Key words: higher education export, international cooperation, statistical analysis, international accreditation, foreign students, demographic changes, innovation.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние экспорта услуг высшего образования на развитие национальной экономики и образовательной системы в условиях усиливающейся глобализации и конкуренции. Особое внимание уделено реформам, реализуемым в Узбекистане, стратегиям привлечения иностранных студентов, вопросам расширения экспорта образования через международные рейтинги и систему аккредитации. Также на основе статистических данных анализируются потоки студентов на международном образовательном рынке и раскрыта динамика роста по регионам.

Ключевые слова: экспорт высшего образования, международное сотрудничество, статистический анализ, международная аккредитация, иностранные студенты, демографические изменения, инновации.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida oliy ta'lim sohasining eksport salohiyati milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida muhim omilga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim xizmatlari eksporti, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali davlatlararo ta'lim integratsiyasini chuqurlashtirishda alohida o'rin tutmoqda. O'zbekistonda olib borilayotgan chuqur islohotlar, jumladan oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligi, chet ellik talabalarni jalb qilishga qaratilgan strategik dasturlar, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalarning joriy etilishi – bularning barchasi mamlakat ta'lim tizimining global maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro ta'lim bozori tobora kengayib, 2024–yilga kelib dunyo bo'yicha chet elda tahsil olayotgan talabalar soni 6 milliondan oshdi. Bu raqam global ta'lim xizmatlari eksportining nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va



madaniy ahamiyatini ham ko'rsatib beradi. Shunday sharoitda har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish va xorijiy talabalar uchun qulay akademik hamda ijtimoiy muhit yaratish orqali bu jarayonda faol ishtirok etishga intilmoqda.

Xorijiy talabalarni jalb qilish strategiyasi – bu faqatgina reklama va targ'ibot tadbirlarini emas, balki institutsional salohiyat, infratuzilma, xalqaro akkreditatsiyalar, o'qituvchilar malakasi, ta'lim sifatining xalqaro standartlarga mosligi, grantlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Global ta'lim bozorida talabalar oqimini tahlil qilish har bir oliy ta'lim muassasasi uchun strategik ahamiyatga ega, chunki bu orqali universitetlar o'zining xalqaro ta'lim maydonidagi pozitsiyasini aniqlay oladi. Talabalar qaysi mintaqalardan va qaysi yo'nalishlardan ko'proq kelayotganini bilish muassasaga o'zini qaysi yo'nalishlarda raqobatbardosh qilish, qaysi bozorlarga chiqish va qanday marketing strategiyalarini ishlab chiqish lozimligini aniqlash imkonini beradi. Bu tahlil, shuningdek, xorijiy talabalarni jalb qilish strategiyasini aniqlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi, chunki u orqali muassasa talab yuqori bo'lgan mamlakat va mintaqalarga yo'naltirilgan til, madaniyat, grant va stipendiya dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar oqimining tahlili ta'lim dasturlarini diversifikatsiya qilish va ularni xalqaro talab hamda me'yorlarga moslashtirishda yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha bir qancha xorijiy ilmiy nashrlarda ma'lumotlar chop etilgan. Xususan, quyidagi xorijiy olimlarning oliy ta'lim borasida bildirgan fikrlari bilan tanishamiz: oliy ta'limning xalqarolashtirilishi – bu mamlakatlar uchun ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim yo'lidir (Zhu, 2024) [1]. Bu jarayon nafaqat talabalar va o'qituvchilarning xalqaro mobilligini oshirish, balki o'quv dasturlarini xalqaro talablarga moslashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni o'z ichiga oladi (Wadhwa & Jha, 2014) [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni jahon standartlariga moslashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan (Troitskiy & Yun, 2021) [3].

Oliy ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar mavjud: ta'lim muassasalarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va xalqaro ta'lim ko'rgazmalarida ishtirok etish (Nagy & Berács, 2012) [4]; xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, qo'shma o'quv dasturlarini yaratish va talabalar almashinuvini rag'batlantirish (Brache et al., 2022) [5]; o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish (Lapina et al., 2016) [6].

Yuqorida ko'rsatilgan ilmiy izlanishlarda oliy ta'lim xizmatlari eksportini tashkil etishning xalqaro hamkorlik, o'quv dasturlarini jahon standartlariga moslashtirish, OTMlarni global ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali targ'ib qilish masalalari keng yoritilgan. Biroq jahon ta'lim bozorida talabalar oqimini tahlil qilish orqali strategiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar mavjud emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlashda tizimli va qiyosiy tahlil, abstraktsiya, guruhlash, monografik kuzatuv, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global ta'lim bozorida talabalar oqimini tahlil qilish maqsadida YUNESKO xalqaro tashkilotining barqaror rivojlanish dasturi doirasida tayyorlangan xorijiy talabalar oqimi to'g'risidagi statistik axborot keltiriladi (1-jadval):

1-jadval. Dunyo bo'ylab xorijiy talabalar oqimi [7].

Ko'rsatkich nomi	Chet elda tahsil olayotgan jami xalqaro oliy o'quv yurtlari talabalari soni					
	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Dunyo bo'yicha	5416029	5722159	6111231	6560075	6440413	6859426
Dengiz yo'li bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar	504725	556286	613567	676914	694512	736293
Eng kam rivojlangan davlatlar	408501	429789	472706	503650	504654	531827
Rivojlanayotgan kichik orol davlatlari	105246	106364	108867	112635	112057	111191
Sahroi Kabir Afrikasi	410391	411210	426905	456550	483405	527955



Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo	630569	664333	688543	726719	757263	791108
Shimoliy Afrika	159388	170008	178569	195726	212395	229945
G'arbiy Osiyo	471181	494325	509974	530993	544868	561163
Markaziy va Janubiy Osiyo	828391	907584	1035429	1171360	1195339	1369730
Markaziy Osiyo	197302	217854	246398	293681	320424	339392
Janubiy Osiyo	631089	689730	789031	877679	874915	1030338
Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo	1424648	1512151	1602383	1673360	1565503	1584949
Sharqiy Osiyo	1117767	1184098	1247369	1300014	1211567	1227647
Janubi-Sharqiy Osiyo	306881	328053	355014	373346	353936	357302
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	334570	363882	390720	415700	414941	448461
Okeaniya	31648	31747	32034	32000	29755	30004
Avstraliya va Yangi Zelandiya	18970	19092	19334	19668	17972	18101
Okeaniya (Avstraliya va Yangi Zelandiyadan tashqari)	12678	12655	12700	12332	11783	11903
Yevropa va Shimoliy Amerika	1126761	1147119	1157719	1185179	1189007	1213819
Yevropa	988606	1010839	1005036	1024051	1036631	1045935
Shimoliy Amerika	138155	136280	152683	161128	152376	167884
Dunyo bo'yicha mintaqalar kesimida	4891964	5144172	5442492	5773441	5747244	6077244
Arab davlatlari	493934	522100	547784	584388	611038	633402
Markaziy va Sharqiy Yevropa	458891	465936	430470	447817	463997	465595
Markaziy Osiyo	267900	291008	320251	366524	394432	419143
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	1445716	1531905	1620986	1689002	1579418	1599030
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	336209	365482	391938	416859	416035	449500
Shimoliy Amerika va G'arbiy Evropa	751253	769713	815630	831977	822134	852090
Janubiy va G'arbiy Osiyo	631089	689730	789031	877679	874915	1030338
Sahroi Kabir Afrikasi	401986	402152	417643	446622	473244	516928
Rivojlanayotgan kichik orol davlatlari	104986	106146	108759	112573	112031	111218
Jahon bankining daromad guruhlari	7993954	8456061	8976041	9576317	9543288	10164479
Kam daromadli mamlakatlar	221830	239992	282762	311194	329628	344204
Past o'rta daromadli mamlakatlar	1216149	1310192	1451205	1631944	1690828	1923194
O'rta daromadli mamlakatlar	3229002	3443680	3672225	3947817	3940351	4233205
Yuqori o'rta daromadli mamlakatlar	1930606	2050761	2143170	2232739	2162264	2226212
Yuqori daromadli mamlakatlar	1396367	1411436	1426679	1452623	1420217	1437664

YUNESKO xalqaro tashkilotining Barqaror rivojlanish dasturi doirasida tayyorlangan mazkur statistik ma'lumotda so'nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda ta'lim olayotgan xalqaro talabalar sonining izchil o'sib borayotganini ko'rish mumkin. Ushbu statistik ma'lumotda 2017–2022-yillar davomida chet elda tahsil olayotgan oliy o'quv yurtlari talabalari sonidagi o'zgarishlar aks ettirilgan. Umumiy dinamika shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab xalqaro talabalar soni 2017-yildagi 5 416 029 nafardan 2022-yilda 6 859 426 nafarga yetgan. Bu holat ta'limga bo'lgan xalqaro talabning ortib borayotganidan dalolat beradi.

Mintaqalar bo'yicha tahlilda quyidagilar aniqlandi:

1. Dengiz yo'liga ega bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar. Ushbu davlatlarni tark etib, xalqaro talabaga aylanganlar soni sezilarli darajada oshgan. 2017-yilda bu ko'rsatkich 504 725 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 736 293 nafarga yetgan. Mazkur o'sishni ichki imkoniyatlarning cheklanganligi, ta'lim sifatining pastligi va mutaxassisliklar xilma-xilligining yetarli emasligi bilan izohlash mumkin.

2. Afrika mintaqalari.

Sahroi Kabir Afrikasidan 2017-yilda 630 589 nafar talaba xorijdagi OTMlarni tanlagan bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 791 395 nafarga yetgan.

Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo mintaqasida ham o'sish kuzatilgan bo'lib, 2022-yilda xorijiy talabalar soni 758 163 nafarni tashkil etgan.

3. Osiyo mintaqalari.

Markaziy va Janubiy Osiyodan kelayotgan xalqaro talabalar soni 2017-yildagi 828 391 nafardan 2022-yilda 1 369 730 nafarga yetgan.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda ham o'sish kuzatilgan bo'lib, 2022-yilda talabalar soni 1 227 647 nafarga yetgan.

4. Lotin Amerikasi va Karib dengizi mintaqasi. Ushbu hududdan kelayotgan xalqaro talabalar soni 2017-yildagi 334 570 nafardan 2022-yilda 432 082 nafarga oshgan.



5. Yevropa va Shimoliy Amerika.

Yevropa bo'ylab xalqaro talabalar soni 988 660 nafardan 1 213 750 nafarga yetgan.

Shimoliy Amerikada esa ushbu ko'rsatkich 138 155 nafardan 128 413 nafarga kamaygan. Bu mintaqada xorijiy talabalar sonining pasaygani kuzatilmogda.

6. Daromad guruhlari bo'yicha tahlil. Jahon bankining tasnifiga ko'ra:

Kam daromadli mamlakatlardan kelayotgan xalqaro talabalar soni 2017-yilda 221 830 nafar bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 342 416 nafarga yetgan. Oxirgi olti yillikda o'rtacha o'sish 9 foizni tashkil etgan.

Past o'rta daromadli mamlakatlarda 2022-yilda bu ko'rsatkich 1 923 194 nafarga yetib, o'rtacha yillik o'sish 10 foizni tashkil etgan. Mazkur guruh boshqa daromad guruhlari orasida eng tez sur'atlarda o'sayotgan va son jihatdan yuqori ulushga ega bo'lgan guruh hisoblanadi.

O'rta daromadli mamlakatlar xalqaro talabalar soni bo'yicha yetakchi bo'lib, 2022-yilda bu ko'rsatkich 4 433 205 nafarga yetgan. Oxirgi olti yillikda o'rtacha o'sish 6 foizni tashkil etgan.

Yuqori o'rta daromadli mamlakatlardan kelayotgan xalqaro talabalar soni 2017-yilda 1 930 606 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu raqam 2 226 212 nafarga yetib, o'rtacha o'sish 3 foizga teng bo'lgan.

Yuqori daromadli mamlakatlarda esa ushbu ko'rsatkich 2017-yildagi 1 396 367 nafardan 2022-yilda 1 420 273 nafarga yetgan bo'lib, o'rtacha o'sish atigi 1 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, xalqaro oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar soni yildan-yilga ortib borayotganini kuzatish mumkin (2021–2022-yillardagi pandemiya davrini hisobga olmaganda). Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar va Osiyo mintaqasidan kelayotgan talabalar soni keskin oshgan. Shimoliy Amerikada esa pasayish tendensiyasi mavjud. Daromadlar guruhi bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro talabalarning deyarli yarmi o'rta daromadli aholi qatlamidan chiqmogda. Qabul qiluvchi mamlakatning madaniy xususiyatlari ham chet ellik talabalarni jalb qilishga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Madaniy farq (yoki madaniy masofa) til tafvutlari, irqiy, etnik, diniy va ijtimoiy normalar bilan bog'liq bo'lib, xalqaro ta'lim jarayonida muhim omil sifatida ko'riladi. Sotsiolog Geert Hofstede mamlakatlar o'rtasidagi madaniy masofani baholash uchun bir nechta parametrlar asosida vosita ishlab chiqqan. Bular: hokimiyatdan uzoqlik darajasi, individualizm darajasi, gender yo'nalganlik (ya'ni erkak yoki ayolga xos madaniyat), noaniqlikdan qochish, uzoq muddatli strategik fikrlash hamda istak va hohishlarga berilishdir. Ushbu mezonlar o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, xalqaro talabalarni jalb qilish va ularning yangi muhitga moslashuvi shunchalik murakkab kechadi [8]. Masalan, arab mamlakatlaridagi universitetlarda amerikalik talabalar soni ortib borayotganiga qaramay (2004-yilda 1 000 nafar, 2017–yilda deyarli 2 000 nafar), Saudiya Arabistoni o'zining qulay shart-sharoitlariga qaramay, amerikalik talabalar uchun mashhur o'quv yo'nalishi sifatida yetarlicha tanilmagan. Bu holat, asosan, qirolikda oliy ta'lim tizimining kuchli diniy yo'nalishga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shu sababli, madaniy jihatdan mezbon mamlakatdan uzoq bo'lgan xorijlik talabalar uchun maxsus madaniyatlararo moslashuv dasturlarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Masalan, diniy qarashlarga bog'liq oziq-ovqat masalalari ayrim Osiyo davlatlaridan kelgan talabalar uchun Gonkong universitetlarida o'qish qaroriga salbiy ta'sir ko'rsatmogda.

Ta'lim tilining maqomi ham o'quv mamlakati va universitet tanloviga ta'sir qiluvchi muhim omildir. Ingliz tilining global maqomi va xalqaro talablarga mosligi ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarni eng jozibador ta'lim markazlariga aylantirmogda. Masalan, Gollandiya ingliz tilida so'zlashmaydigan mamlakatlar orasida birinchi bo'lib, 1950-yildan boshlab ingliz tilida ta'lim xizmatlarini taklif eta boshlagani tufayli xalqaro miqyosda katta ommalashuvga erishgan [9].

Muayyan tilning dunyodagi yetakchiligi bir qator mezonlarga – texnologik ilg'orlik, iqtisodiy va ilmiy muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatning tiliga bog'liq. Shu sababli, ushbu tillarda ta'lim beruvchi mamlakatlar xorijiy talabalar orasida katta talabga ega bo'ladi. Shuningdek, chet elliklarga bo'lgan munosabat madaniyati va qabul qiluvchi mamlakatdagi boshqa irq va din vakillariga nisbatan bag'rikenglik darajasi ham xalqaro talabalarni jalb qilish imkoniyatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Qabul qiluvchi mamlakatdagi turmush darajasi, geografik joylashuv va iqlim sharoitlari ham bu jarayonda e'tiborga olinadigan muhim omillar sirasiga kiradi.

Hozirgi bosqichda jahonning yetakchi universitetlari o'z strategiyalarida aniq maqsadli bozorlar va talab yuqori bo'lgan ta'lim dasturlarini taklif etishga alohida e'tibor qaratmogda. Ta'lim xizmatlarini eksport qilish bo'yicha universitet strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi chet ellik talabalarni yollash uchun maqsadli mamlakatlarni aniqlash va har bir mamlakat uchun moslashtirilgan ta'lim taklifini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Oldingi paragrafda o'rganilgan omillar, shuningdek, jahon ta'lim xizmatlari bozoridagi tendensiyalarni hisobga olgan holda, strategiyani shakllantirish uch darajadagi tahlilga asoslanadi:

1. Global daraja. Bu darajada jahon ta'lim bozorining umumiy tendensiyalari va rivojlanish qonuniyatlari hisobga olinadi, bu esa dunyodagi barcha ta'lim jarayoni ishtirokchilariga turli darajada ta'sir qiladi.

2. Milliy daraja. Bu bosqichda maqsadli bozor omillari va universitet joylashgan mamlakatning ichki shart-sharoitlari tahlil qilinadi.



3. Universitet darajasi. Bu darajada universitetning muayyan bozorda strategiyani amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlanadi.

Ishlab chiqiladigan strategiya metodikasi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda ta'lim bo'yicha taklifni ishlab chiqish sxemasi asosida maqsadli mamlakatlarni tanlashni o'z ichiga oladi. Ta'lim xizmatlarini chet ellik talabalarga eksport qilish uchun ma'lum bir mamlakatda yosh aholining ulushi va farovonlik darajasi belgilangan mezonlarga mos bo'lishi zarur.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson taraqqiyot indeksi yondashuvi asosida demografik nuqtayi nazardan quyidagi formula orqali demografik salohiyat indeksini ishlab chiqdik. Indeks matematik-statistik usul asosida tuzilgan bo'lib, u geometrik o'rtacha orqali hisoblanadi. Bunday yondashuv har bir ko'rsatkichning nisbiy qiymat ekanligini inobatga oladi:

1. Mamlakatning dunyo aholisidagi ulushi. Bu ko'rsatkich to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinishi mumkin bo'lgan xorijiy talabalar sonini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi (Jahon banki ma'lumotlari, 2017–2022) [10].

2. Mamlakatlarda o'smirlar sonining umumiy aholi sonidagi ulushi. Bu ko'rsatkich o'rta va uzoq muddatli istiqbolida ma'lum bir mamlakatdan talabalarni jalb qilishning maqbulligini aniqlaydi (Jahon banki ma'lumotlari, 2017–2022) [11].

3. Oliy ta'limni xorijda olayotgan talabalarining umumiy aholi soniga nisbati. Mazkur ko'rsatkich kelgusi yillar uchun potensial xalqaro talabalar sonini aniqlashda qo'llaniladi (YUNESKO xalqaro tashkilotining Barqaror rivojlanish dasturi doirasida tayyorlangan xorijiy talabalar oqimi, 2017–2022) [12].

Ushbu uchta ko'rsatkich har biri bir xil oraliqda (0–100) ifodalanadi, bu esa geometrik o'rtachani qo'llash imkonini beradi. Teng og'irliklardan foydalanish, mezonlar orasida hech birining ustunligi yo'qligi faraziga asoslanadi va ko'rsatkichlar ta'sirini muvozanatlash imkonini beradi. Og'irliklarni taqsimlash bo'yicha yagona nazariy asos mavjud bo'lmagani sababli, tadqiqotchi sog'lom fikr asosida qaror qabul qiladi [13].

Shunday qilib, biz yosh aholisi yuqori bo'lgan, chet elda ta'lim olish va yashash uchun yetarlicha iqtisodiy ta'minotga ega bo'lgan salohiyatli xorijiy talabalar sonini aniqlashimiz mumkin. Shu bilan birga, geometrik o'rtacha bir ko'rsatkich hisobiga boshqasini to'liq qoplash imkoniyatini kamaytiradi [14] va turli hududlarni bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi [15].

Jahon banki va YUNESKO xalqaro tashkilotining rasmiy sahifalarida yuqorida keltirilgan uch omil bo'yicha 206 ta mamlakat uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida tahlil amalga oshirildi. Mamlakatlar sonining ko'pligi bois, Osiyo, Yevropa, Afrika hamda Janubiy va Shimoliy Amerika qit'alari kesimida eng istiqbolli bo'lgan 10 tadan potensial maqsadli bozorlar aniqlandi (2-jadval).

2-jadval. Ta'lim xizmatlari eksportining demografik salohiyati indeksi.

№	Mamlakat	Indeks	№	Mamlakat	Indeks
Osiyo			Afrika		
1	Xitoy	0,058522	1	Nigeriya	0,001719
2	Hindiston	0,039169	2	Marokash	0,000135
3	Pokiston	0,001313	3	Jazoir	0,000094
4	Indoneziya	0,000902	4	Efiopiya	0,000090
5	Vetnam	0,000655	5	Keniya	0,000077
6	Bangladesh	0,000586	6	Kamerun	0,000072
7	Eron, Islomiy Rep.	0,000307	7	Sudan	0,000059
8	Turkiya	0,000215	8	Gana	0,000049
9	Filippin	0,000181	9	Janubiy Afrika	0,000045
10	Nepal	0,000171	10	Kot-d'Ivuar	0,000045
Shimoliy va Janubiy Amerika			Yevropa		
1	Amerika Qo'shma Shtatlari	0,001368	1	Rossiya Federatsiyasi	0,000336
2	Braziliya	0,000767	2	Germaniya	0,000319
3	Meksika	0,000257	3	Frantsiya	0,000277
4	Kolumbiya	0,000134	4	Italiya	0,000141
5	Kanada	0,000067	5	Ukraina	0,000115



6	Peru	0,000066	6	Birlashgan Qirollik	0,000106
7	Venesuela Respublikasi	0,000050	7	Ispaniya	0,000069
8	Ekvador	0,000026	8	Polsha	0,000034
9	Argentina	0,000023	9	Ruminiya	0,000024
10	Boliviya	0,000016	10	Gretsiya	0,000013

Osiyo qit'asida:

- Xitoy (0,058522) – indeks bo'yicha mutlaq yetakchi. Bunga asosiy sabab sifatida aholi sonining ko'pligi (1,4 milliarddan ortiq), yosh aholining yuqori ulushi, ta'limga bo'lgan yuqori talab, shuningdek, yillar davomida eng ko'p xorijiy talaba chiqargan mamlakat sifatida tan olinganligi ko'rsatiladi.

- Hindiston (0,039169) – indeks ko'rsatkichi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Aholi soni va yosh aholining ulushi yuqoriligi bu mamlakatni salohiyatli bozor sifatida ko'rsatmoqda.

- Pokiston (0,001313) va Indoneziya (0,000902) – bu mamlakatlar indeksi Xitoy va Hindistondagidek yuqori bo'lmasa-da, madaniy va diniy jihatdan yaqinligi sababli kelajakda o'zlashtirish uchun salohiyatli bozor sifatida qaralishi mumkin.

Afrika qit'asida:

- Nigeriya (0,001719) – qit'a bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Aholi sonining katta bo'lishi (200 milliondan ortiq), yoshlar ulushining yuqoriligi va O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalari hali yetarlicha rivojlanmaganligi uni istiqbolli bozor sifatida ko'rsatadi.

- Marokash (0,000135) va Jazoir (0,000094) – indeks ko'rsatkichlari nisbatan past. Biroq madaniy va diniy yaqinlik ularni ham salohiyatli hududlar qatoriga qo'shadi.

Shimoliy va Janubiy Amerika qit'alarida:

- AQSh (0,001368) – mintaqadagi yetakchi mamlakat. Aholi tarkibidagi yoshlar ulushi yuqori bo'lishi, ta'lim narxining balandligi kabi omillar ko'plab yoshlarni xorijda ta'lim olishga undamoqda.

- Braziliya (0,000767) – AQShdan keyin ikkinchi o'rinda. Katta aholi soni va yoshlar ulushining ko'pligi bu mamlakatni ham xorijiy ta'lim xizmatlari uchun istiqbolli qiladi.

Yevropa qit'asida:

- Rossiya (0,000336) – qit'a doirasida yetakchi hisoblanadi. Aholi sonining nisbatan ko'pligi indeksning yuqoriligi sabab bo'lgan asosiy omillardan biridir.

- Osiyo mamlakatlari, ayniqsa Xitoy va Hindiston, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga talabalarni jalb qilish bo'yicha eng yuqori salohiyatga ega. Bunga ularning katta aholi soni, yoshlar ulushi va O'zbekiston bilan yaqin madaniy-siyosiy munosabatlari sabab bo'lmoqda. Afrika mamlakatlari indeks bo'yicha pastroq o'rinda bo'lsa-da, geografik uzoqlik va hamkorlikning sustligi bu holatga ta'sir qilmoqda. Shimoliy va Janubiy Amerikada AQSh va Braziliya, Yevropada esa Rossiya yetakchilik qilmoqda.

Shunga qaramay, xorijiy talabalarni jalb qilishni kuchaytirish maqsadida Xitoy, Hindiston va Rossiya bilan ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, Pokiston, Bangladesh, Turkiya, Eron, Vetnam, Afg'oniston, Nepal, hamda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari (xususan, Indoneziya, Vetnam, Filippin) potentsial donor mamlakatlar sifatida qaralishi lozim. Bu hududlarda aholining ko'pligi va demografik salohiyatning o'sish yoki barqaror tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, Afrika mamlakatlari bilan ham ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyoning yetakchi universitetlarining ta'lim xizmatlarini eksport qilishdagi muvaffaqiyati asosan universitet strategiyasiga tayanadi. Bu strategiya universitetning xalqaro faoliyatiga, ta'lim xizmatlarining global bozordagi raqobatdosh ustunliklariga va harakatlar rejasiga asoslanadi. Strategiya tuzishda mamlakatlar, universitetning ichki salohiyati (ta'lim, moliyaviy, kadrlar va tashkiliy imkoniyatlar), xorijiy bozorlarning imkoniyatlari va xatarlarini tahlil qilish hamda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga moslashish muhimdir.

Xalqaro universitet strategiyalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularni shakllantirishda yagona yondashuv mavjud emas. Ba'zi universitetlar o'zining mustaqil xalqaro strategiyasiga ega bo'lsa, boshqalari esa xalqaro faoliyatni umumiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida olib boradi. Oliy ta'lim muassasasining xalqaro strategiyasi uning missiyasi, qadriyatlari hamda mamlakat va mintaqadagi o'rniga mos holda shakllanadi.

Shunday qilib, OTMLar ta'lim xizmatlarini eksport qilish jarayonida yuqorida taqdim etilgan demografik salohiyat indeksidan foydalanish orqali xorijiy talabalar mobilligini tahlil qilishi va istiqbolli bozorlarni aniqlab, ularga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayev Javoxir. O'zbekistonda tibbiy ta'lim eksportining rivojlanish tendensiyalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, Vol. 3 No. 3 (2025 yil), 824–831 bet. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/4793>
2. Brache, J., Callagher, L., & Husted, K. (2022). The effects of interfirm cooperation purpose on export performance: Choosing between local and overseas partners. *Journal of Business Research*, 148, 12–22. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2022.04.035>
3. Cheng, Y. C., Cheung, A. C. K., & Ng, S. W. (Eds.). *Internationalization of higher education: The case of Hong Kong*. Springer, 2015. Vol. 28.
4. Decancq, K., & Lugo, M. A. (2013). Weights in multidimensional indices of wellbeing: An overview. *Econometric Reviews*, 32(1), 14.
5. Geert Hofstede. *Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations*. Second Edition, Thousand Oaks CA: Sage Publications, 2001.
6. Lapina, I., Roga, R., & Mürsepp, P. (2016). Quality of higher education. *International Journal of Quality and Service Sciences*, 8(3), 263–278. <https://doi.org/10.1108/ijqss-04-2016-0029>
7. Левина Е. И. Методика оценки демографических процессов в регионе. *Вестник Томского государственного университета. Экономика*, 2016, № 3 (35), С.188.
8. Nagy, G., & Berács, J. (2012). Antecedents to the export market orientation of Hungarian higher education institutions, and their export performance consequences. *Journal of Marketing for Higher Education*, 22(2), 231–256. <https://doi.org/10.1080/08841241.2012.738716>
9. Troitskiy, E. F., & Yun, S. M. (2021). Uzbekistan: New Milestones of Higher Education Internationalization. *Vysshee Obrazovanie v Rossii = Higher Education in Russia*, 30(10), 157–168. <https://doi.org/10.31992/0869-3617-2021-30-10-157-168>
10. Wadhwa, R., & Jha, S. (2014). Internationalization of Higher Education. *Higher Education for the Future*, 1(1), 99–119. <https://doi.org/10.1177/2347631113518399>
11. Zhu, R. (2024). Research on the Development Strategies and Challenges of Internationalization of Higher Education in China. *Region - Educational Research and Reviews*, 6(8), 104. <https://doi.org/10.32629/rerr.v6i8.2501>
12. UNESCO Data Centre – International Student Mobility, 2017–2022. <https://data.uis.unesco.org/index.aspx?queryid=3807#>
13. World Bank – Total Population. <https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.TOTL>
14. World Bank – Population ages 0–14 (% of total). <https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.0014.TO.ZS?view=chart>
15. UNDP – Human Development Index FAQ. <http://hdr.undp.org/en/faq-page/human-development-index-hdi#t292n2880>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
